

O‘SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Hamdamova Nigora Olimovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Ilmiy rahbar O.R.Avezov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘smirlar tarbiyasining qiyinchilik xususiyatlari va ularning kelib chiqish sabablari, o‘smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlari, o‘smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo‘llari va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri masalalari, olimlar tomonidan o‘smirlardagi qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklarni sabablari haqidagi fikrlari berilgan, o‘smirlar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar mavjud.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir, psixik o‘shish, kamolot, jinsiy balog‘at, xarakter, xususiyat, o‘z-o‘zini anglash, ota-ona, pedagog, psixolog, e’tibor, qiziqish.*

Аннотация: *В данной статье дана характеристика трудностей в воспитании подростков и их причины, особенности психологического развития подросткового возраста, пути формирования и взросления личности подростка и влияние биологических и социальных факторов, влияющих на это. обсуждаются мнения ученых о трудностях подросткового возраста и причинах этих трудностей, даются рекомендации по работе с подростками.*

Ключевые слова: *подросток, умственное развитие, взросление, половое созревание, характер, черта характера, самосознание, родители, педагог, психолог, внимание, интерес.*

Abstract: *In this article, the characteristics of difficulties in the upbringing of adolescents and their causes, the characteristics of the psychological development of adolescence, the ways of the formation and maturation of the adolescent personality and the influence of biological and social factors that affect it are discussed. , the opinions of the scientists about difficulties in teenagers and the causes of these difficulties are given, there are recommendations for working with teenagers.*

Key words: *adolescent, mental growth, maturation, puberty, character, trait, self-awareness, parents, pedagogue, psychologist, attention, interest.*

KIRISH

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga

oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishning muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. Prezidentimiz e'tibor qaratgan yoshlarning ko'pchiligini o'smir yoshidagi yoshlar tashkil etadi.

“Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham kuchli va muntazam bo'ladi. Agar bir davlatning xalqi beodob va nodonlik bilan oila munosabatlarini ojizlantirsa, intizomsizlikka yo'l qo'ysa unda bu millatlarning saodati va turmushi gumon ostida qoladi”. Abdurauf Fitrat.

ASOSIY QISM

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi va bu davrda o'smir tarbiyasiga e'tibor qaratish va bu tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarga yuzaki qaramaslikni taqozo etadi.

Oila kelajak avlodga kuchli ta'sir etish tarbiya maskani hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning jamiyatda o'zlarining o'rinini topishga ko'maklashish va ularning oila qurishiga e'tibor qaratish barchadan javobgarlik taqozo qiladi.

O'quv yurtlarida farzandlarimizga to'g'ri tarbiya berish ularni ona yurtiga Vataniga fidoyilik ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda allaqachon uzoq va baxtli umr ko'rishlikning eng muhim chorasi sog'lom turmush tarzini yaratish kerakligi va ilmiy va tajribiy jihatdan isbotlandi.

Hatto bu masala muhim mamlakat hujjatlari, Prezident farmon va qonunlarida o'z ifodasini topgan. Bu masalaga mos qanchadan qancha fikrlar, muhokamalar o'tkazilib ommaviy axborot vositalari satrlarida maqolalar, eshittirishlar, ko'rsatuvlar berilmoqda. Ayniqsa o'smirlar tarbiyasiga har tomonlama ya'ni oilada va o'quv o'rinlarida alohida e'tibor qaratish kerak. Shu sababli o'smirlar tarbiyasiga nazar tashlab o'tishi lozim. Oila tarbiyasining o'ziga xosligi, uning mohiyati, an'anaviyligi, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, ular bilan uzviy aloqadorligi, o'zaro ta'siri, oila muhitining barkamol avlod va komil insonni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rinni egallab turibdi. Mazkur masala bo'yicha jahon falsafasida g'oyat muhim va ibratli fikrlar mavjud bo'lgan. Malumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi.

Uning atrofida qilargana, ayniqsa, o'z-o'ziga bolgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bolgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan,

o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bolib qoladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardozi-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Shu sababli ham bu davrda o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Bu davrda o'smirlar o'ziga nisbatan ko'proq diqqat-e'tiborni talab qiladi.

O'smirning eng muhim xususiyatlardan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida "anglashilmovchilik"ni keltirib chiqaradi. Aqlning tanqidiyligi o'smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, o'zgaralar mulohazasidan, darslikdan xato kamchiliklar topishga, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qa'tiy e'tiroz bildirishga urinib va bahslashishga moyil bo'ladilar.

O'smirlardagi asosiy o'zgarishni nimalar tashkil etadi? O'smir o'zini asta – sekin katta odam deb qis qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikda asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirda o'ziga, atrofga muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O'smir o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

O'smirlar bilish jarayonlarida ham o'sish kuzatiladi. O'smirning qiziqishlari ortadi, bilish faoliyati maktab programmasidan tashqariga chiqadi, mustaqil o'qiy boshlaydi. Uning tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik hosil boladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o'z fikrini tog'ri, ravon va aniq ifodalash yo'lini tshuntirib berishlari lozim. O'smirlarning o'quv faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi".

Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning "meni" qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida ayniqs, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofida ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga haqqi borligiga o'zini-o'zi ishontiradi, chunki men endi "katta bo'lib qoldim" deb o'ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar "katta bolib qolganlik tuyg'usi" ni shaxsning o'smirlik yoshdagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladlar.

L.S.Vigotskiy o'smirlilik davrida qiziqishlarining o'zgarishiga bog'liq ravishda ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko'rsatgan. Salbiy faza ilgari qiziqishlarining so'nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bolishi bilan bog'liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon boladi: ish qobiliyatining, o'zlashtirishining pasayishi, o'smirning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, uning o'zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'smirda boshqalarning va o'zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi. O'smirlilik davridagi inqiroz - o'smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat'iy o'zgarishi, buzilishidir.

O'smirlilik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoda o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi, ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi. Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir boladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomila guruhini tanlash bilan band boladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bolinadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika togaragi bolishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlarning yig'ilishib, ichib- chekib o'tirishidagan yerto'la ham bolishi mumkin. Bu yoshda o'smirlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo boladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bolganday qarashadi, bola esa bu g'amxorlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi.

Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarining xarakteri o'zgaradi. O'spirinda kattalik hissi tug'iladi va hissiyot mustaqil bolishiga intilish, kattalarning xoxish istaklariga qarshi chiqishida namoyon boladi. Kichkina bolaga qaraganda o'smirning qiziqishlari ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatiga intilish bilan bir qatorda o'smiringa qiziqishlarining beqarorligi ham xosdir.

XULOSA

O'smirlilik davridagi qiyinchiliklar yuzaga kelishini oldini olishda ota-onalarga quyidagi vazifalarni qo'yish maqsadga muvofiqdir:

- farzandlarga e'tiborli bo'lish;
- ular bilan do'stona muloqot yaratish;
- qiziqishlarini inobatga olgan holda tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini nazorat qilish va sharoit yaratib berish;
- o'smir yoshidagi bolalarga yetarlicha vaqt ajratish va ularning ko'proq kitob o'qishiga, ya'ni ta'lim jarayonlariga bee'tibor bo'lmaslik;

-OAV lardan ma'lum vaqtda va muayyan bir tartib asosida foydalanishlarini nazorat qilib borish va yuqoridagi barcha jarayonlarni to'g'ri amalga oshishini taminlashdan iborat.

Psixologlar uchun tavsiyalar:

-har bir yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni qiziqqan sohalarga yo'naltirish;

-o'quv jarayonidagi nafaqat o'smirlar psixologiyasiga balki boshqa bolalar tarbiyasiga ham birdek e'tiborli bo'lish;

-o'smir yoshidagi o'quvchilarning ota-onalari va maktab jamoasidagi boshqa o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish;

-o'smirlardagi o'zgarishlarni doimiy nazorat qilish uchun turli xil metodikalarni tartib bilan qollay olish;

-o'smirning tengdoshlar davrasidagi muloqot jarayonini chetdan kuzatib borish;

-bolalar bilan ularning qalbiga yol topa oladigan o'zaro hurmat va ishonch muhitini yaratishlari lozim.

Aynan yuqorida keltirilgan tavsiyalar o'z vaqtida va to'liq bajarilsa o'smirlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning va ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga yordam beradi deb o'ylaymiz. O'smirlik davrining to'g'ri tashkil etilishi qolgan yosh davrlardagi muammolarga ham bee'tibor bo'lmaslikdan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev. E. "Umumiy psixologiya". -T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. 548-bet
2. Davlatshin. M.G "Yosh va pedagogik psixologiya". -T.; 2004
3. Nishanova. Z.T va boshqalar. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". -T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018. 332-bet.

4. Mannopov S.M. "oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi" Ma'ruzalar matni; Farg'ona-2007 235 b

5. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 105 b

6. G'oziyev E.G'. "Pedagogik psixologiya" – Universitet. Toshkent – 1997 134 b

7. Abdulla Aloniy "Turkiy guliston yohud axloq"- Toshkent; Oqituvchi-1992 -22-23 b

8. Inomova K.M. "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi"-Toshkent; Fan-1999 151 b